

**O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.FIL.46.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

MUSAYEVA SHAXLO KUDRATOVNA

**O‘ZBEK BOLALAR NASRI TARAQQIYOTIDA
NOSIR FOZILOV IJODI**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**
**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**
**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Musayeva Shaxlo Kudratovna

О‘zbek bolalar nasri taraqqiyotida Nosir Fozilov ijodi 3

Musayeva Shaxlo Kudratovna

The work of Nasir Fazilov in the development of Uzbek children's prose.....24

Мусаева Шахло Кудратовна

Творчество Насира Фозилова в развитии узбекской детской прозы45

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 49

**O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.FIL.46.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

MUSAYEVA SHAXLO KUDRATOVNA

**O‘ZBEK BOLALAR NASRI TARAQQIYOTIDA
NOSIR FOZILOV IJODI**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.PhD/Fil2195 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Navoiy davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume) veb-sahifaning www.tai.uz hamda "ZiyoNet" axborot-ta'lim portali www.ziynet.uz manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Barakayev Rahmatulla
filologiya fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar:

Qahramonov Qurdosh Yalgashevich
filologiya fanlari doktori, professor

Jamilova Bashorat Sattorovna
filologiya fanlari doktori, dotsent

Yetakchi ilmiy muassasa:

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Himoya 2023 yil "11" dekabr soavida O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.FIL.46.01 raqamli Ilmiy kengash yig'ilishida o'tkaziladi.

Manzil: 100047, Toshkent, Shahrisabz tor ko'chasi, 5. Tel.: (99871) 233-36-50; faks: (99871) 233-71-44; e-mail: uzlit@uzsci.net).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Asosiy kutubxonasida tanishish mumkin. Manzil: 700170, Toshkent, Ziyolilar ko'chasi, 13. Tel.: (99871)262-74-58.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil "29" noyabr da tarqatildi.

(2023 yil "29" noyabr dagi 06 raqamli reyestr bayonnomasi).



J.S.Eshonqulov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi o'rinbosari, filol.f.d., prof.

S.P.To'laganova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ijroiy kotibi v.v.b., filol.f.d.

U.A.Hamdamiyov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filol.f.d., prof.

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida turli janrlar taraqqiyoti hamda yangilanishining o'ziga xosliklarini bolalar adabiyoti nuqtai nazaridan o'rganish hamisha diqqat markazida bo'lgan. Chunki muayyan bir xalq adabiyotida biror bir janr paydo bo'lishi, taraqqiyoti va ushbu janr takomilida ijtimoiy hayotning o'rni deyarli har bir holatda alohida xususiyatga ega bo'lib, milliy adabiyotlarni ushbu jihatdan o'rganish dolzarb ahamiyat kasb etishi shubhasizdir. Xususan, muayyan janr taraqqiyotida alohida o'rin tutgan ijodkorlar adabiy merosini tadqiq etish davr adabiy jarayoni manzarasini namoyon etishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Bu borada yosh avlod ma'naviy kamolotida alohida o'rin tutadigan bolalar adabiyoti janriy takomilini o'rganish zarurati ham shu qadar dolzarbdir.

Dunyo adabiyotshunosligida bolalar adabiyoti janriy takomilini tadqiq etish borasida sezilarli natijalarga erishilgan. Ayniqsa, bolalar adabiyotida hikoyachilik va qissachilik taraqqiyotining o'ziga xosliklarini turli yo'nalishlar aspektida tadqiq qilish alohida o'rin tutadi.

O'zbek adabiyotshunosligida hikoya va qissa janrining turli-tuman o'ziga xosliklari, taraqqiyot bosqichlari va janriy takomilini o'rganish borasida salmoqli natijalarga erishilgan. O'zbek adabiyotida hikoyachilik va qissanavislik qanchalar rivojlangan bo'lsa, ularning o'ziga xosliklari tadqiqiga bag'ishlangan monografik tadqiqotlar ham shu qadar e'tirof etishga arzigulikdir. Biroq bu e'tirofni bolalar adabiyoti hikoyachiligi va qissanavisligiga ham to'laligicha tatbiq etib bo'lmaydi. Chunki bolalar adabiyotimiz yo'nalishlarining har birida bolalar adabiyotigagina tegishli bo'lgan o'ziga xosliklar mavjudligi, ayniqsa, yosh avlod ma'naviy kamolotida bolalar adabiyotining beqiyos ahamiyati dunyo ilmiy jamoatchiligi tomonidan e'tirof etilgan ilmiy haqiqatlardir. "Bundan yuz yil muqaddam buyuk o'zbek shoiri Abdulhamid Sulaymon o'g'li – Cho'lpon "Adabiyot yashasa, millat yashar!" degan otashin da'vat bilan maydonga chiqqan edi. Hayot va tarix sinovlaridan o'tgan teran ma'noli bu so'zlar bugun ham o'z ahamiyati va qimmatini yo'qotgan emas. Darhaqiqat, adabiyot, san'at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi"¹. XX asr o'zbek bolalar adabiyoti nasri taraqqiyotida muhim o'rin tutgan Nosir Fozilov singari yozuvchilarning mahorat sirlari, ijodiy laboratoriyasini tadqiq etish dolzarb, o'rganilishi zarur bo'lgan masalalardandir. Chunki N.Fozilov G'afur G'ulom va Abdulla Qahhor an'alarini davom ettirib, hikoya va qissa janrida sezilarli yutuqlarga erishgan. Shu bois N.Fozilov hikoya va qissalari o'ziga xosliklarini o'rganish tadqiqot mavzusining zaruriyatini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti faoliyatini tashkil etish to'g'risida", 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi

¹Мирзиёев Ш. Адабиёт, санъат ва маданият яшаса, миллат ва халқ, бутун инсоният безавол яшайди. www.xabar.uz. 07.08.2018.

to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi qarorlari, shuningdek, mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Mavzuning o‘rganilganlik darajasi. Jahon adabiyotshunosligida hikoya va qissa (povest)ning janr xususiyatlari va nazariy asoslari, uslub va qahramon muammolari A.N.Veselovskiy, Y.Borev, M.M.Baxtin, V.V.Vinogradov, L.Timofeyev, M.B.Xrapchenko, N.D.Tamarchenko, YE.I.Xalizev, A.B.Yesin kabi rus olimlarning tadqiqotlarida o‘rganilgan².

O‘zbek hikoyachiligi va qissanavisligining taraqqiyot tamoyillari, hikoyachilik va qissanavislik mahorati, janr xususiyatlari, uslub va qahramon, xarakter va konflikt, mavzu va g‘oya, obraz va tasviriy vositalar, syujet va kompozitsiya kabi masalalar M.Qo‘shjonov, N.Karimov, S.Mamajonov, B.Nazarov, N.Vladimirova, S.Mirvaliyev, U.Normatov, N.Rahimjonov, H.Boltaboyev, Y.Solijonov, D.Quronov, I.Niyatov, X.Do‘stmuhammedov, Sh.Doniyorova, G.Sattorova, S.Komilova, Sh.Odilov, M.Qo‘chqarova, P.Kenjayeveva, S.Matyaqubova, Sh.Sopiyeva, A.Toshpo‘latov, K.Shaxabov, M.Jo‘rayeva, A.Qayumov, B.Xasanovalarning monografiya, dissertatsiya va maqolalarida atroflicha yoritilgan³.

² Веселовский А.Н. Историческая поэтика. – М.: Выс.школа, 1989. – 406 с.; Боров Ю. Эстетика. Теория литературы: Энциклопедический словарь терминов. – М.: Астрель, 2003. – 575 с.; шу муаллиф. Искусство интерпретации и оценки. – М.: Сов. писатель, 1981. – 400 с.; Бахтин М.М. Вопросы литературы и эстетика. – М.: Худ. лит-ра, 1975. – 502 с.; Виноградов В.В. О теории художественной речи. – М.: Выс.школа, 1971. – 118 с.; Храпченко М.П. Познание о литературе и искусстве. – М.: Наука, 1987. – 575 с.; Тамарченко Н.Д. Теория литературы / Роды и жанры. – М.: ИМТИ РАН, 2003. – 228 с.; Хализев В.Е. Теория литературы. – М.: Выс. школа, 2002. – 397 с.; Есин А.Б. Принципы и приемы анализа литературного произведения. – М.: Флинта–Наука, 2002. – 248 с.

³ Қўшжонов М. Ҳаёт ва маҳорат. – Тошкент: Ўзбекистон, 1962. – 201 б.; Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2008. – 582 б.; Мамажонов С. Услуб жилolari. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1992. – 219 б.; Назаров Б. Ҳаётгиллик – безавол мезон. – Тошкент: Ёш гвардия, 1985. – 224 б.; Назаров Б, Раҳимжонов Н. Ўзбек совет хикоячилигининг жанр хусусиятлари / Адабий тур ва жанрлар. 3 томлик. I том. – Тошкент: Фан, 1991. – Б. 29-108; Мирвалиев С. Наср, давр, қаҳрамон. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1983. – 240 б.; Норматов У. Насримиз уфклари. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1974. – 215 б.; шу муаллиф. Умидбахш тамойиллар. – Тошкент: Маънавият, 2000. – 112 б.; Болтабоев Ҳ. Наср ва услуб: услуб муаммосига назарий нигоҳ ва ҳозирги ўзбек насрида услубий изланишлар. – Тошкент: Фан, 1992. – 105 б.; Солижонов Й. Ҳақиқатнинг синчков кўзлари. – Тошкент: Миллий кутубхона, 2009. – 228 б.; Қуронов Д. Чўлпон насри поэтикаси. – Тошкент: Шарқ, 2004. – 288 б.; Ниятов Ч. Ҳозирги ўзбек прозасида характер проблемаси. –

Shuningdek, o‘zbek bolalar adabiyoti taraqqiyotini turlar, janrlar, davrlar va ushbu adabiyot rivojiga katta hissa qo‘shgan yozuvchi-shoirlar hayoti va ijodini yanada teranroq o‘rganishga kirishildi, uning mavzu-mundariyasi, g‘oyaviy-badiiy ifodasiga oid yangi talqinlar yuzaga kela boshladi. Bunda bevosita bolalar adabiyoti tadqiqotchilari bilan bir qatorda umumadabiyot tadqiqotchilari qo‘shgan ulushni ham e‘tibordan soqit qilmaslik kerak. Ayniqsa, N.Vladimirova, M.Qo‘shjonov, O.Safarov, G‘.Mo‘minov, N.Qobilov, P.Shermammedov, X.Egamov, A.Rasulov, S.Irisxo‘jayeva, R.Xo‘jayeva, S.Matjonov, Q.Qahramonov, M.Sattorov, R.Barakayev, Z.Ibrohimova, K.Turdiyeva, D.Rajabov, B.Jamilova, B.Ashurov, G.Jo‘rayeva, H.Nusratova, D.To‘rayeva, N.To‘xtayeva kabi tadqiqotchilarning monografiya, risola, darslik, o‘quv-usuliy qo‘llanmalari hamda Zafar Diyor, Quddus Muhammadiy, Sulton Jo‘ra, Shukur Sa‘dulla, Qudrat Hikmat, Po‘lat Mo‘min, T.Adashboyevlarning hayoti va ijodlariga bag‘ishlangan risolalar, xotiralar to‘plamlarini bu boradagi e‘tiborli izlanishlar sifatida qayd etish joiz⁴.

Тошкент: Фан, 1984. – 128 б.; Дўстмухаммедов Х. Ҳозирги ўзбек ҳикоячилигидаги бадий тафаккурнинг янгиланиши (80-йилларнинг иккинчи ярми ва 90-йилларнинг аввалидаги ҳикоялар мисолида): Филол.фан.номз... дисс. – Тошкент, 1995. – 136 б.; Дониёрова Ш. Шукур Холмирзаев ҳикояларининг бадий-услубий ўзига хослиги: Филол. фан.номз... дисс. – Тошкент, 1999. – 130 б.; Сагторова Г. 90-йиллар ўзбек ҳикоячилигида миллий характер муаммоси: Филол. фан.номз... дисс. – Тошкент, 2002. – 136 б.; Камилова С. XX аср охири – XXI аср бошлари рус ва ўзбек адабиётида ҳикоя жанри поэтикасининг ривожи: Филол. фан.номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2016. – 92 б.; Одилов Ш. Кейинги йиллар ўзбек ҳикояларида замондошларимиз образи (70–80-йиллар): Филол. фан.номз... дисс. – Тошкент, 1989. – 161 б.; Қўчқарова М. Бадий сўз ва руҳият манзаралари (Эссе, қисса, ҳикоя: тадқиқ ва талқин). – Тошкент: Мухаррир, 2011. – 232 б.; шу муаллиф. Ҳозирги ўзбек насрида бадий шартлилик: Филол.фан. д-ри ... дисс.автореф. – Тошкент, 2020. – 69 б.; Кенжаева П. Ҳозирги ўзбек ҳикояларидаги қаҳрамон руҳиятини тасвирлаш тамойиллари: Филол.фан.номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – 23 б.; Матякубов С. Ҳозирги ўзбек ҳикояларида инсон концепцияси ва шахс бадий талқини: Филол.фан.номз... дисс.автореф. – Тошкент, 2006. – 22 б.; Сопиева Ш. Хайридин Султоннинг ҳикоянавислик маҳорати: Филол. фан.номз... дисс. – Тошкент, 2006. – 147 б.; Тошпулатов А. Ўзбек адабиётида новелла жанри ва унинг бадийи (А.Қаҳҳор, Ш.Холмирзаев, Н.Эшонкул ижоди мисолида): Филол. фан бўйича фалсафа д-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2018. – 50 б.; Шаҳобов К. Ҳозирги ўзбек насрида ўтиш даврининг бадий талқини (Шукур Холмирзаев асарлари мисолида): Филол. фан бўйича фалсафа д-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Фарғона, 2019. – 53 б.; Жўраева М. Замонавий ўзбек насрида янги инсон концепцияси (Абдуқаюм Йўлдошев ва Зулфия Қуролбой қизи ҳикоялари асосида): Филол. фан бўйича фалсафа д-ри (PhD) ... дисс. автореф. – Фарғона, 2018. – 53 б.

⁴ Ўзбек совет болалар адабиёти тарихи очерки. – Тошкент: Фан, 1978. – 280 б.; Ўзбек болалар адабиёти ва адабий жараён. – Тошкент: Фан, 1989. – 312 б.; Болалар адабиёти ва замонавийлик. – Тошкент: Фан, 1991. – 212 б.; Қўшжонов М. Қуддус Муҳаммадий. Қудрат Ҳикмат. – Тошкент: Ўз КП МК нашриёти, 1969. – 30 б.; Суюмов А. Кичкинтойлар адабиёти. – Тошкент: Ёш гвардия, 1962. – 106 б.; Шермухамедов П. Ижод дарди. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1973. – 163 б.; яна ўша. Она сутидек покиза. – Тошкент: Ёш гвардия, 1975. – 80 б.; яна ўша. Истеъдод сеҳри. – Тошкент: Ёш гвардия, 1977. – 136 б.; Сафаров О. Болалик куйчиси. – Тошкент: Фан, 1978. – 168 б.; яна ўша. Ўзбек болалар поэтик фольклори. – Тошкент: Ўқитувчи, 1985. – 250 б.; Матжон С. Тириклик суви. – Тошкент: Ёш гвардия, 1977. – 200 б.; шу муаллиф. Икки эл ардоғида. – Тошкент: Мусиқа, 2009. – 44 б.; Ирисхўжаева С. Болалар адабиётида дидактика. – Тошкент: Фан, 1977. – 48 б.; Болалар олами: Ўзбек совет болалар адабиёти ҳақида мақолалар тўплами. К. 1. – Тошкент: Ёш гвардия, 1988. – 112 б.; Болалар олами: Ўзбек совет болалар адабиёти ҳақида мақолалар тўплами. К. 2. – Тошкент: Ёш гвардия, 1989. – 96 б.; Қаҳрамонов Қ. Адабий танқид ва ўзбек болалар адабиёти. – Тошкент: Фан, 1991. – 120 б.; шу муаллиф. Адабий жараён ва эстетик талқин. – Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ, 2014. – 162 б.; шу муаллиф. Болаликка ошуфта кўнгил. – Тошкент: Турон замин зиё, 2014. – 40 б.; Баракаев Р. Абдулла Авлоний ва ўзбек болалар адабиёти. – Тошкент: Фан, 2004. – 158 б.; Баракаев Р., Ашуров Б. Турсунбой Адашбоев феноменига бир назар. – Тошкент: Академнашр, 2017. – 160 б.; Баракаев Р., Очилев Э. Бадий тасвир маҳорати. – Тошкент: Мухаррир, 2021. – 48 б.; Жамилова Б. Ўзбек болалар публицистикаси. – Тошкент: Фан, 2006. – 116 б.; шу муаллиф. Ўзбек болалар адабиётида поэтик тафаккур янгиланиши. – Бухоро: FAN VA TA'LIM, 2022. – 236 б.; (Safarov O.), Barakayev R., Jamilova B. Bolalar adabiyoti. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. - Toshkent: Shafoat Nur Fayz, 2022. – 320 б.; Ашуров Б. Турсунбой Адашбоевнинг поэтик маҳорати. – Тошкент: Фан, 2011. – 136 б.; Ражаб Д., Жўраева Г. Маҳорат марралари. – Тошкент: Парадигма, 2018. – 36 б.; Носир Фозилов замондошлар хотирасида. – Тошкент: Машхур-пресс, 2019. – 3-283 б.; Тўхтаева Н. Истиклол даври ўзбек болалар шеърляти.

O‘zbek bolalar adabiyotining o‘ziga xosliklari tadqiqiga bag‘ishlangan dissertatsiyalar esa asosan bolalar she‘riyatining turli o‘ziga xosliklari muammolariga bag‘ishlangan bo‘lib, ularning barmoq bilan sanarli qismida bolalar publitsistikasi va X.To‘xtaboyev romanlari turli yo‘nalishlarda tadqiq etilgan⁵. O.Abobakirovaning dissertatsion tadqiqotida N.Fozilov hikoyalarning ayrim jihatlari qiyosiy tahlilga tortilgan bo‘lsa-da⁶, o‘zbek bolalar adabiyoti hikoyachiligi va qissanavisligining taraqqiyot tamoyillari hamda unda N.Fozilov ijodining o‘rni muammosi monografik aspektda maxsus o‘rganilgan emas.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot Navoiy davlat pedagogika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq «Yangi o‘zbek adabiyoti va adabiy tanqid» mavzusidagi yo‘nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. O‘zbek bolalar adabiyotida hikoya va qissa janrlarining maydonga kelish xususiyatlari, taraqqiyot tamoyillari va unda Nosir Fozilov ijodining o‘rnini aniqlash, yozuvchining adabiy an‘anaga ijodiy yondashuv yo‘sini va uslubiy individualligini belgilashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o‘zbek bolalar hikoyachiligi va qissanavisligining XX asr ikkinchi yarmi va istiqlol davridagi taraqqiyot tamoyillarini aniqlash;

N.Fozilov ijodining o‘zbek bolalar nasri, xususan, bolalar hikoyachiligi va qissanavisligidagi o‘rnini belgilash;

“Shum bolaning nabiralari” va G‘afur G‘ulomning “Shum bola” qissalari qiyosi orqali N.Fozilov ijodida an‘anaviylik, va badiiy mahoratning o‘ziga xos jihatlari yozuvchi dunyoqarashi hamda yondashuv usullari bilan bog‘liqlikda ko‘rsatib berish;

– Toshkent: LESSON PRESS, 2020. – 134 b.; Солижонов Й. Анвар Обиджон поэтик олами. – Toshkent: Янги аср авлоди, 2022. – 216 б.

⁵ Иброҳимова З. Мактабгача тарбия ёшдаги ўзбек болалар насрининг ғоявий-бадий хусусиятлари: Филол.фан.номз... дисс. – Toshkent, 1990. – 179 б.; Баракаев Р. XX аср бошларидаги ўзбек болалар адабиёти ва Абдулла Авлоний ижоди: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Toshkent, 1994. – 32 б.; Ражабов Д. 80-йиллар ўзбек болалар шеърлятида поэтик маҳоратнинг айрим масалалари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Toshkent, 1995. – 29 б.; Жамилова Б. Ўзбек болалар публицистикаси ва унинг ривожланиш тамойиллари: Филол. фан. номз. дисс. ... автореф. – Toshkent, 2004. – 23 б.; Жамилова Б. Ўзбек болалар адабиётида поэтик тафаккурнинг янгиланиш омиллари ва тамойиллари: Филол.фан. д-ри (DSc) ... дисс. автореф. – Toshkent, 2022. – 62 б.; Ашуров Б. Турсунбой Адашбоев шеърляти поэтикаси: Филол. фан. номз. ... дисс. – Toshkent, 2008. – 156 б.; Жўраева Г. Ўзбек болалар шеърлятида ҳажвий образ яратиш маҳорати: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Toshkent, 2011. – 22 б.; Нусратова Ҳ.Ч. Сафар Барноевнинг бадий маҳорати: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) дисс. автореф. – Самарқанд, 2017. – 45 б.; Тўраева Д. Қудрат Ҳикматнинг бадий маҳорати: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) дисс. автореф. – Toshkent, 2017. – 53 б.; Тўлабоева Р. Худойберди Тўхтабоев романларида бадий психологизм: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) дисс. автореф. – Toshkent, 2019. – 53 б.; Ражабова Р.З. Ўзбек болалар адабиётида фольклор жанрлари стилизацияси (нарий эртак ва топишмоқ мисолида): Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) дисс. автореф. – Бухоро, 2020. – 52 б.; Маматалимов З. Анвар Обиджон шеърлятининг бадий-маърифий хусусиятлари: Филол.фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) дисс. автореф. – Toshkent, 2021. – 54 б.; Ярашова Н.Ж. XXI аср ўзбек болалар адабиёти тили ва услубияти (Х.Тўхтабоев ижоди мисолида): Филол.фан.бўйича фалсафа д-ри (PhD) ... дисс. – Самарқанд, 2020. – 32 б.; Лутфуллаев Ж.А. Ўзбек болалар адабиёти романчилигининг таракқиёт тамойиллари ва Худойберди Тўхтабоев ижоди: Филол.фан.бўйича фалсафа д-ри (PhD) ... дисс. – Жиззах, 2022.- 42 б.

⁶ Абобакирова О.Н. Ўзбек болалар ҳикоячилигида бадий услуб ва қаҳрамон масаласи (Н.Фозил, Л.Маҳмудов, А.Обиджон ижоди мисолида): Филол.фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) дисс. – Фарғона, 2021. – 143 б.

N.Fozilov hikoya va qissalaridagi davr va qahramon talqinini tadqiq etish orqali hayot haqiqatning badiiy haqiqatga aylanishidagi badiiy tasvirlar qo'llash mahoratini (o'ziga xoslikni) yoritish;

“Qahr va mehr” hamda “Qush qanoti bilan” qissalarida Ikkinchi jahon urushi davrida xalqimiz boshiga tushgan musibat va kulfatlar tasvirlarini tarixiylik va badiiy to'qima nuqtai nazaridan asoslash;

“Saraton” qissasida adabiy qahramonlar xarakteri evolyutsiyasini ko'rsatib berish orqali yozuvchi ijodiy laboratoriyasining o'rnini asoslash.

Tadqiqotning obyekti. N.Fozilovning hikoyalari, “Oqim”, “Qahr va mehr”, “Qush qanoti bilan”, “Saraton”, “Shum bolaning nabiralari”, “Qorxat” qissalari tadqiqot obyekti sifatida tanlangan.

Tadqiqotning predmetini N.Fozilov hikoya va qissalari o'zbek bolalar hikoyachiligi va qissanavisligidagi milliy-adabiy an'ana, ijodiy o'zlashtirish va ijodkor individualligi ta'sirida paydo bo'lgan poetik o'zgarishlar ekanini belgilash tashkil etadi.

Tadqiqotning metodologik asosi va tadqiq usullari. Dissertatsion tadqiqotni bajarishda qiyosiy-tipologik, sotsiologik va biografik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

N.Fozilov o'zbek bolalar hikoyachiligining mavzuiy doirasini kengaytirib, ayniqsa, hayot haqiqatining badiiy haqiqatga aylantirilishi jarayoni nuqtai nazaridan yangi pog'onaga ko'targani asarga qahramon va voqelikni tanlay bilish mahorati bilan bog'liqligi ochib berilgan;

N.Fozilov ijodida an'anaviylik, o'ziga xoslik va badiiy mahorati yozuvchining “Shum bolaning nabiralari” qissasini G'afur G'ulomning “Shum bola” qissasiga qiyoslash orqali ifoda uslubining goh badiiy to'qimaga, goh hayot haqiqatiga, goh engil yumorga yo'g'dirilgan holda aks ettirilishi dalillangan;

N.Fozilov ijodida sarguzashtlilikning o'ziga xosligi “Qorxat” qissasi qahramonlari (bolalar)ning kutilmagan holatlarga tushib qolishi va undan chiqib ketishi bilan bog'liq hayotiy tasvirlarga asoslanganida namoyon bo'lishi ochib berilgan;

“Qahr va mehr” hamda “Qush qanoti bilan” qissalarida Ikkinchi jahon urushi davrida xalqimiz boshiga tushgan musibat va kulfatlar o'sha paytda yosh bola bo'lgan ijodkorning og'ir kunlarda bolalarni ham birdan ulg'aytirib, kattalarga hamnafas qilganini o'zi guvohi bo'lgan voqealar asosida nihoyatda ishonarli tasvirlab bergani, yozuvchining turli hikoya va qissalarida bir xil nomdagi qahramonlarning ko'plab uchrashi misolida N.Fozilov asarlarida hayotiylikning asosiy o'rin tutishi hamda yozuvchi hikoyalar sarlavhalarining to'plamga kiritilishida o'zgarganlik sabablari, qissa va hikoyadan mohirona tarzda yangi qissa yaratish mahorati ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

N.Fozilov hikoyalarda syujet va adabiy qahramon masalasi tahlili orqali XX asr ikkinchi yarmi – XXI asr boshlari o'zbek bolalar hikoyachiligidagi izlanish hamda yangilanishlar jarayoni o'rganilgan;

voqelik talqini hamda qahramon yaratishdagi ifoda usullari tahlili orqali N.Fozilov qissalarida hayot haqiqatining badiiy haqiqatga aylanishi ko'rsatib berilgan;

N.Fozilov ijodida an'anaviylik, navotirlik va badiiy mahorat muammolari yozuvchining "Shum bolaning nabiralari" qissasini G'afur G'ulomning "Shum bola" qissasiga qiyoslash orqali yoritilgan;

N.Fozilov ijodida bir nomdagi hikoyalar va bir nomdagi qahramonlar ko'p uchrashini qiyosiy tadqiq etish orqali adib ijodida hayotiy material, ya'ni xomashyo badiiy umumlashma darajasiga etkazilishining o'ziga xosliklari dalillangan;

o'zbek bolalar adabiyoti qissanavisligida N.Fozilov ijodi Ikkinchi jahon urushi davrida frontning orqa tomonida yosh bolalar ham erta ulg'ayib, og'ir kunda xalq bilan hamnafas bo'lishi tasvirlarining hayotiyligi nuqtai nazaridan alohida o'rin tutishi ko'rsatib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi respublikamiz hamda xorijlik olimlarning fikr va qarashlariga asoslanganligi, tadqiqot vazifalariga mos keluvchi, o'zaro bir-birini to'ldirib boruvchi tadqiqot metodlari qo'llanilganligi; adabiyotshunoslik metodologiyasi yordamida tahlil va talqin qilinganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ilgari surilgan konseptual g'oyalar "Adabiyotshunoslikka kirish", "O'zbek bolalar adabiyoti", "Adabiyotshunoslik nazariyasi", "Badiiy tahlil asoslari" va "O'zbek adabiy tanqidchiligi tarixi" fanlari bo'yicha o'tkaziladigan tadqiqotlar hamda metodologik yondashuvlarni takomillashtirishga xizmat qilishida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiyada bayon qilingan yondashuvlar o'zbek bolalar adabiyoti qissachiligida badiiy shakl unsurlarining badiiy mazmuni shakllantirish va ifodalash uchun eng qulay tarzda uyushtirilish tamoyillari haqidagi nazariy xulosalardan ta'lim tizimida o'qitilayotgan adabiyot tarixi, o'zbek bolalar adabiyoti va adabiyot nazariyasi fanlari bo'yicha darslik va o'quv qo'llanmalari tayyorlash, ma'ruzalar o'qish, shuningdek, akademik litsey va kasb-hunar kolleji o'quvchilariga o'zbek bolalar adabiyoti qissachiligi bo'yicha mashg'ulotlar olib borishda, janr badiiyati, ijodkorlar poetik mahoratiga oid maxsus kurs va seminarlar tashkil etishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. XX asrning ikkinchi yarmi va istiqloq davri o'zbek bolalar nasrida Nosir Fozilov ijodining o'rnini mavzusini tadqiq etish hamda uning ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqish asosida;

N.Fozilov o'zbek bolalar hikoyachiligining mavzuiy doirasini kengaytirib, ayniqsa, hayot haqiqatining badiiy haqiqatga aylantirilishi jarayoni nuqtai nazaridan yangi pog'onaga ko'targani asarga qahramon va voqelikni tanlay bilish mahorati bilan bog'liqligi ochib berilganligi hamda N.Fozilov ijodida an'anaviylik, o'ziga xoslik va badiiy mahorati yozuvchining "Shum bolaning nabiralari" qissasini G'afur G'ulomning "Shum bola" qissasiga qiyoslash orqali ifoda uslubining goh badiiy to'qimaga, goh hayot haqiqatiga, goh engil yumorga yo'g'dirilgan holda aks ettirilishi dalillanganligi haqidagi nazariy xulosalardan FA-F1-005-raqamli "Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq etish" (2017-

2020) fundamental loyihasida foydalanilgan (Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limining 2023-yil 23-maydagi 17.01/79-son ma’lumotnomasi). Natijada o‘zbek va qoraqalpoq adabiyoti nasrida folklorizm unsurlari, mifologik obrazlar, milliy urf-odatlar, qadriyatlar va diniy qarashlarning o‘zaro qiyosiy-tipologik tarzda talqin etilganligi haqidagi ilmiy-nazariy ma’lumotlar bilan boyishiga asos bo‘lgan;

N.Fozilov ijodida sarguzashtlilikning o‘ziga xosligi “Qorxat” qissasi qahramonlari (bolalar)ning kutilmagan holatlarga tushib qolishi va undan chiqib ketishi bilan bog‘liq hayotiy tasvirlarga asoslanganida namoyon bo‘lishi ochib berilgan yuzasidan qarashlaridan FA-A1-G007 “Qoraqalpoq naql-maqollari lingvistik tadqiqot obekti sifatida” (2012-2016) amaliy tadqiqot loyihasida foydalanilgan (Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limining 2023-yil 23-maydagi 17.01/80-sonli ma’lumotnomasi). Natijada ilmiy qarashlar qiyoslar asosida umumiy xulosalarni kuchaytirishga xizmat qilgan, loyihaning ilmiy qimmatini oshirishga yordam bergan;

“Qahr va mehr” hamda “Qush qanoti bilan” qissalarida Ikkinchi jahon urushi davrida xalqimiz boshiga tushgan musibat va kulfatlar o‘sha paytda yosh bola bo‘lgan ijodkorning og‘ir kunlarda bolalarni ham birdan ulg‘aytirib, kattalarga hamnafas qilganini o‘zi guvohi bo‘lgan voqealar asosida nihoyatda ishonarli tasvirlab bergani, yozuvchining turli hikoya va qissalarida bir xil nomdagi qahramonlarning ko‘plab uchrashi misolida N.Fozilov asarlarida hayotiylikning asosiy o‘rin tutishi hamda yozuvchi hikoyalar sarlavhalarining to‘plamga kiritilishida o‘zgarganlik sabablari, qissa va hikoyadan mohirona tarzda yangi qissa yaratish mahorati ochib berilganligi yuzasidan takliflardan Navoiy viloyati teleradiokompaniyasining “Assalom yangi kun!”, “Diyor 24” tonggi dasturi ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Navoiy viloyati teleradiokompaniyasining 2023-yil 30-maydagi 01-10/85-son ma’lumotnomasi). Natijada, ushbu ko‘rsatuvning yoshlar orasida kitobxonlik madaniyatining shakllanishiga, ularning ma’naviy olamini boyitishga, dunyoqarashini kengayishiga zamin yaratgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta, jumladan, 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruza qilinib, muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha 10 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, 5 tasi respublika hamda 3 tasi xorijiy jurnalda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Ishning hajmi 130 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan

natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“XX asrning ikkinchi yarmi va istiqlol davri o'zbek bolalar nasrida Nosir Fozilov ijodining o'rni”** nomli birinchi bobi ikki fasldan iborat bo'lib, birinchi fasl **“O'zbek bolalar nasrining taraqqiyot tamoyillari”**ga bag'ishlanadi.

O'zbek bolalari uchun maxsus adabiyotni vujudga keltirish harakati XX asr boshlarida namoyon bo'la boshladi. Bu holat Abdulla Avloniyning “Birinci muallim”, “Ikkinchi muallim”, “Maktab gulistoni”, Hamza Hakimzodaning “Yengil adabiyot”, “O'qish kitobi”, Sadridin Ayniyning “Qiz bola yoxud Xolida” darsliklaridan joy olgan hikoya va adabiy ertaklarida aks etadi. Ularning bir qismi mumtoz adabiyot an'analari asosida nasr – nazm aralash bo'lsa, bir qismi rus bolalar adabiyotidan tarjima qilingan tarjimalar ta'sirida, sof nasriy asarlar sifatida maydonga keldi.⁷ XX asrning 20-yillaridan boshlab nasr o'zbek bolalar adabiyotida dastlab hikoya va adabiy ertaklar, 50-yillarga keyin esa qissa va romanlar shaklida paydo bo'lib, alohida tur darajasiga ko'tarildi. Bolalar uchun sof nasriy yo'nalishda ijod qiladigan qator yozuvchilar paydo bo'ldi.

Shuningdek, ushbu faslda O'zbek bolalar adabiyoti haqidagi fan XX asr boshlarida ilg'or marifatparvarlar pedagoglar, adabiyotshunoslar yozgan maqolalardan yuzaga kela boshlagani, XX asrning o'rtalariga kelib dastlabki xrestomatiyalar va o'quv qo'llanmalarni tuzish harakati tufayli shakllanish jarayoniga kira borganligi haqida. Bolalar adabiyoti rivojlana borishi bilan uning o'z tadqiqotchilari ham maydonga kela boshladi. Dastlabki qadamlarini o'zbek bolalar adabiyoti taraqqiyotining umumiy jihatlarini tadqiq etishdan boshlagan adabiyotshunoslik va tanqidchilik bolalar adabiyoti alohida namoyandalari hayoti va ijodini monografik tarzda o'rganishga, ijodiy portretlarni yaratishga kirishdi. Abdulla Avloniy, Sulton Jo'ra, Shukur Sa'dulla, Qudrat Hikmat, X.To'xtaboyev, T.Adashboyev, S.Barnoyev, Anvar Obidjonlarning bolalar yozuvchisi sifatidagi ijodiga bag'ishlangan nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilindi⁸.

⁷ Бу ҳақда тўлиқ маълумот учун қаранг: Баракаев Р. Ўзбек болалар адабиёти ва Абдулла Авлоний ижоди. – Тошкент: Фан, 2004. - Б.158.

⁸ Кахрамонов К. Роль литературной критики в развитии реалистических принципов в узбекской советской детской литературе: Автореф.дисс... канд. филол. наук. – Ташкент, 1988. – 20 с.; Баракаев Р. XX аср бошларидаги ўзбек болалар адабиёти ва Абдулла Авлоний ижоди: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1994. – 32 б.; Турдиева К. Ҳозирги замон болалар шеърлятида маънавий масаласи: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1994. – 26 б.; Тўлабоева Р. Худойберди Тўхтабоев романларида бадий психологизм: Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2019. – 53 б.; Тўхтаева Н. Истиқлол даври ўзбек болалар шеърлятининг етакчи хусусиятлари: Филол.фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2019. – 56 б.; Абобакирова О.Н. Ўзбек болалар ҳикоячилигида бадий услуб ва қахрамон масаласи (Н.Фозилов, Л.Маҳмудов ва А.Обиджон ижоди мисолида). Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) дисс.автореф. – Фарғона, 2021. – 56 б.; Маматалимов З. Анвар Обиджон шеърлятининг бадий-маърифий хусусиятлари: Филол.фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2021. – 54 б.; Ярашова Н.Ж. XXI аср ўзбек болалар адабиёти тили ва услубияти (Х.Тўхтабоев ижоди мисолида): Филол.фан.бўйича фалсафа д-ри (PhD) ... дисс. – Самарқанд, 2020; Лутфуллаев Ж.А. Ўзбек болалар адабиёти романчилигининг тараққиёт тамойиллари ва Худойберди Тўхтабоев ижоди: Филол.фан.бўйича фалсафа д-ри (PhD) ... дисс. – Жиззах, 2022.

Yuqoridagi fikrlarni to'ldirib shuni aytish mumkinki, XX asrning 60-80 yillari o'zbek bolalar adabiyoti nasrida son (miqdor) jihatidagina emas, balki sifat jihatidan ham sezilarli o'sish, o'zgarishlar davri bo'ldi. **Bu bolalar adabiyoti taraqqiyot sari** davridir. Bu davr ijodkorlar tomonidan bolalar adabiyotiga xos xususiyatlar chuqurroq egallangani, ayniqsa, epik (qissa va roman) janrlarda miqdor jihatidan ko'plab asarlar yaratilib va bolalar adabiy tanqidida ham jonlanish yuz bera boshlagani bilan e'tiborni tortadi. Bolalar adabiyotiga kirib kelgan yangi ijodkor avlod vakillari bu jabhada jonbozlik ko'rsata boshladilar.

Istiqlol davrida esa bolalar adabiyoti ham umumadabiyotimiz singari yanada yangi taraqqiyot pog'onalariga ko'tarildi. Uning zimmasiga istiqlolimiz poydevorini qo'yishi kerak bo'lgan yangi avlodning tom ma'nodagi yangicha ma'naviy kamolotini ta'minlash vazifasi qo'yildi

Istiqlol davrida esa bolalar adabiyoti ham umumadabiyotimiz singari yanada yangi taraqqiyot pog'onalariga ko'tarildi. Uning zimmasiga istiqlolimiz poydevorini qo'yishi kerak bo'lgan yangi avlodning tom ma'nodagi yangicha ma'naviy kamolotini ta'minlash vazifasi qo'yildi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, o'zbek bolalar nasrining taraqqiyot tamoyillarini quyidagicha belgilash mumkin:

birinchidan, XX asr 10-yillari boshidan 30-yillarigacha bo'lgan o'zbek bolalar nasri ma'rifiylik-tarbiyaviylik yo'nalishidagi nazm-nasr aralash hikoya va adabiy ertaklar tarzida namoyan bo'ldi;

ikkinchidan, XX asrning 30-yillaridan boshlab bolalar adabiyotida sof nasriy asarlar – hikoyalar va qissalar tarzida yuzaga keldi, bolalar uchun nasriy yo'nalishda ijod qiladigan yozuvchilar paydo bo'ldi;

uchinchidan, XX asrning 50-yillaridan bolalar uchun yaratilgan romanlar ham paydo bo'la boshladi, demakki, bu bilan o'zbek bolalar adabiyotida nasriy tur hikoyalar, adabiy ertaklar, qissalar, romanlar shaklidagi to'laqonli adabiy tur sifati darajasiga etishdi;

to'rtinchidan, shuni ham qayd etib o'tish kerakki, XX asrning 30-yillaridan boshlab badiiy adabiyot sho'ro mafkurasi manfaatlariga bo'ysundirilib, sotsialistik realizm adabiyotiga aylandi;

beshinchidan, istiqlol davriga kelib, xalqimizning minglab yillik milliy, madaniy, adabiy, tarixiy, diniy qadriyatlarini tiklanishi sharofati bilan o'zbek bolalar nasri ham istiqlolimizning kelajagini mustahkamlash uchun bo'lgan yosh avlod ma'naviy kamolotini ta'minlashga xizmat qiladigan sof milliy o'zanlarga qaytdi;

oltinchidan, bu davrga kelib bolalar nasrida fantastik va ilmiy-fantastik yo'nalishdagi asarlar tobora ko'proq yaratila boshladi.

Birinchi bobning "*Nosir Fozilovning ijodiy yo'li va nasrining janriy xususiyatlari*" nomli ikkinchi faslida Nosir Fozilov ijodiy yo'li, adib qalamiga mansub hikoya va qissalar, qardosh xalqlar adabiyotidan qilingan tarjimalariga e'tibor qaratiladi. XX asr 50-yillarining ikkinchi yarmida bolalar adabiyotiga kirib kelgan N.Fozilov dastlab bir qator hikoyalari, keyinroq esa salmoqli qissalari bilan o'zbek bolalar adabiyotining muayyan darajada o'sib-ulg'ayishiga o'zining munosib hissasini qo'shgan bo'lsa, istiqlol davrida uning ijodi yanada yangi pog'onaga ko'tarildi. Bolalar adabiyoti taraqqiyot sari yo'nalgan davrda bolalar adabiyotiga

kirib kelib, uning og‘ir yukini elkasiga olgan nosir va noshir N.Fozilov ham shu avlodga mansub serqirra adib bo‘lib etishdi. U dastlabki asarlari bilanoq bolalar adabiyotiga yangi havo olib kirishga intilgan ijodkorlardan sanalib, deyarli ellik yillik ijodiy umri davomida bolalar hikoyachiligi, qissachiligi va publitsistikasi, tarjimachiligi va adabiy tanqidi rivojiga ham munosib hissa qo‘shdi, aytish mumkinki, bu bilan nafaqat o‘zbek bolalar adabiyotida, balki qardosh xalqlar adabiyotida ham o‘z ovozigaga ega so‘z san‘atkori sifatida tanildi.

N.Fozilov ijodi adib tiriklik vaqtidayoq adabiyotshunos olimlarimiz tomonidan o‘rganila boshlagan edi. Prof. P.Shermuhamedovning adib ijodi va shaxsiyati haqidagi ko‘plab fikrlari, “Istiqbolni o‘ylab”⁹ va “Davr qahramon taqdirida”¹⁰ kitoblarida N.Fozilov asarlari xususidagi mulohazalari hamda “Diydor” to‘plamida so‘zboshi sifatida berilgan “Kitob – tiriklik suvi” maqolasi, bolalar adabiyotining etakchi tadqiqotchilaridan biri, prof. Safo Matjonning “Tiriklik suvi”¹¹, Safo Matjon va Umida Shermatovalarning adib hayoti va asarlariga bag‘ishlangan “Bolaligini poshsholikka yo‘ygan adib”¹² risolasi, “Saraton” kitobida so‘ngso‘z sifatida keltirilgan “Ijodiy mahorat qirralari” tadqiqoti fikrimizga dalildir.

Bundan tashqari, prof. Q.Yo‘ldoshevning N.Fozilov esse va yodnomalari haqidagi “Yirik shaxsiyatlar haqida chin so‘z”¹³ maqolasi, J.Xushboqning “Nosir Fozilov nasri”¹⁴ maqolasi, prof. Y.Solijonovning “Lirika latofati, nasrning nazokati”¹⁵ kitobidagi adib ijod yo‘li haqida fikr va mulohazalarini keltirishimiz mumkin.

Adib ijodiga nafaqat uning hamsuhbatlari, balki keyingi avlod vakillari ham qiziqib kelmoqda. Jumladan, O.Abobakirova “O‘zbek bolalar hikoyachiligida badiiy uslub va qahramon masalasi” mavzusidagi filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Rhd) dissertatsiyasida N.Fozilov hikoyalarning janr xususiyatlari, davr va qahramonlar talqini, syujet xususiyatlari haqida e‘tiborga sazovor mulohazalarini keltirgan¹⁶.

N.Fozilovning nafaqat ijodi haqida, balki adibning shaxsiyati, ustozligi, yaxshi do‘st yoki adabiyotga endi qadam qo‘yayotgan adabiyot vakillariga tog‘dek suyanch bo‘lganligi haqida ko‘plab esse va yodnomalarni tilga olish ham adib haqidagi tasavvurni yanada boyitadi.

Ikkinchi bob *“Nosir Fozilov asarlarining badiiy-kompozitsion xususiyatlari”* deb nomlanadi. Bobning *“Adib hikoyalarning mavzu ko‘lami va badiiyati”* nomli birinchi faslida adib ijodining asosiy qismini egallagan hikoyalarning mavzusi va sarlavhasi va to‘plamga kirgizilishining sabablari haqida so‘z boradi. O‘z hikoyalari bilan o‘zbek bolalar adabiyotida o‘ziga xos o‘ringa ega, keyingi yarim asrlik o‘zbek bolalar nasrining eng ko‘zga ko‘ringan namoyandalaridan bo‘lmish adib Nosir

⁹ Шермухамедов П. Истикболни ўйлаб. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1987. – 170 б.

¹⁰ Шермухамедов П. Давр қаҳрамон тақдирида. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1976. – 249 б.

¹¹ Матжон С. Тириклик суви. – Тошкент: Ёш гвардия, 1986. – 170 б.

¹² Матжон Сафо, Шерматова У. Болалигини пошшоликка йўйган адиб. – Тошкент: Истиклол, 2012. – 39 б.

¹³ Носир Фозиллов замондошлар хотирасида. – Тошкент: Машхур-пресс, 2019. – Б.329.

¹⁴ Ўша китоб. – Б. 337.

¹⁵ Солижонов Й. Лирика латофати, насрнинг назокати. –Тошкент: Адабиёт учкунлари, 2018. – 76 б.

¹⁶ Абобакирова О. Н. Ўзбек болалар ҳикоячилигида бадий услуб ва қаҳрамон масаласи (Н.Фозиллов, Л.Маҳмудов ва А.Обиджон ижоди мисолида). Филол. фан. бўйича фалсафа д-ри (PhD) дисс. – Фарғона, 2021.

Fozilov hikoyalarining qahramonlari o'z davrining farzandi. Shuningdek, yozuvchi o'zining ko'rgan-kechirganlarini, yashagan davri voqeligini, odamlar qiyofasini bola nigohi bilan tasvirlaydi. Bu esa uning asarlaridagi realistik tasvir uslubini kuchaytirishga xizmat qilgan.

N.Fozilov hikoyalarining mavzusi ko'lamini asosan avtobiografik unsurlar bilan boyitilgan voqeyiy hikoyalar, yosh bola xarakterining maktab, oila va ko'cha muhitlarda shakllanishi tasvirlariga bag'ishlangan sarguzasht hikoyalar, hayvonlar haqidagi hikoyalar hamda esse (yodnoma)lar tarzda guruhlashtirish maqsadga muvofiq.

Birinchi guruhga kiradigan hikoyalar qahramonlari asosan 12-14 yoshli bolalar bo'lib, hikoyalar bolalarning kundalik turmush tarzi yoritilgan hayotiy voqealar asosida yaratilgan. "Tushovli toy", "Ko'kyol", "Quyuncha", "Qo'lqanot", "Insho", "Irmoq", "Do'stlar", "Rostgo'ylik", "Mehmon", "Kichkina demang bizni", "Mening dadam kommunist", "Tosh", "Qo'ng'iroq", "Nabira", "Polizda", "Tug'ilgan kunim", "Hadik", "Indamas", "Malchik amaki", "Tanishuv", "Mening husnim", "Oltmish tiyin", "Qing'ir ishning qiyig'i", "Yaxshi bola" kabi hikoyalar ushbu guruhga mansub. Bu hikoyalarni avtobiografik unsurlar bilan boyitilgan voqeyiy hikoyalar turkumi sifatida talqin qilishimizning asosiy sababi, yuqorida ta'kidlaganimizdek, har bir hikoyada qaysidir ma'noda adib o'zi ishtirok etganligi bilan belgilanadi.

Adibning sarguzasht hikoyalari turkumiga "Robinzonlar", "Mening dadam kommunist", "Oltmish tiyin", "Qo'ng'iroq", "Insho", "Do'stlar", "Rostgo'ylik" singari hikoyalar kiradi.

Hayvonlar haqidagi hikoyalar turkumiga "Tushovli toy", "Ko'kyol", "Quyuncha", "Qo'lqanot" kabi hikoyalarni kiritish mumkin.

Aslida bunday guruhlashtirish nisbiy bo'lib, hayvonlar haqidagi hikoyalarda ovchilar, cho'ponlar va bolalar obrazlari uchrasa, sarguzasht hikoyalarda turli hayvonlar obrazini uchratishimiz ham mumkin.

Adabiy etyudlar, voqeyiy hikoyalar, ya'ni esse-yodnomalar turkumidagi hikoyalarda adabiyotimiz darg'alari va fanimiz zahmatkashlarining o'quvchilarga ibrat bo'ladigan hayotiy tajribalari va do'stliklari haqida so'z boradi. "Ustozlar davrasi", "Ustoz so'zlaganda", "Munavvar lahzalar", "Topdimu yuqotmadim" kabi to'plamlaridagi hikoyalarning barchasi shu turkumga mansub hikoyalardir.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, N.Fozilov hikoyalarining muhim fazilatlaridan biri hayotning shirin yolg'onlaridan uzoqlashib, turmushning konkret va real muammolari hamda aynan bo'lib o'tgan voqealar xususida mushohadalarga berilganida ko'zga tashlanadi. Shunday real voqealarga asoslangan "Ovchilar" hikoyasi "Ayyor", "Jo'xori tuzoq", "Yorilgan miltiq" nomli kichik uch hikoyaning birlashuvidan tashkil topgan. Bu hikoyaning bo'lakchalarga bo'lingani haqida tadqiqotimizning birinchi bobida so'z yuritgan edik. Bu hikoyada ayrim o'rinlardagi voqealar Nosir Fozilov ilk ustoz, amakisi Pochchaxon amakisi bilan ovga chiqqanliklarini ta'kidlaydi. Bu haqida N. Fozilovning turmush o'rtog'i M. Fozilova shunday eslaydi: "Nosir akaning hikoyalari asosan o'zi boshidan kechirganlari va guvohi bo'lganlari haqida. Ilk ustoz Pochchaxon amaki ovga juda qiziqqan va mohir ovchi bo'lgan. Nosir aka ham u kishiga doim hamroh bo'lib yurardi, Turkistonga

borgan vaqtlarimizda ham u kishi albatta ovga chiqib kelar, Sirdaryodan o‘z qo‘llari bilan baliq ovlab bizga pishirib berardi, bu baliqni mazzasini ta‘tib ko‘rsangiz bilasiz. Bu haqida nega gap ochdim? “Jo‘xori tuzoq” hikoyasini o‘qiganmisiz, ana shundagi bola va amakisi – Pochchaxon amaki va Nosir aka o‘zlarini ovga chiqqanlarini eslab hikoya qilgan” (Suhbatdosh Sh.Musayeva, 2022-yil 17-dekabr), bu voqealarning barchasini ov bilan bog‘iq jarayonlar birlashtirib turmoqda.

N.Fozilov ijodiga xos yana bir xususiyat u yoki bu hikoyasining boshqa nom bilan yangi to‘plamiga kiritilishi hodisasidir.

Nosir Fozilov hikoyalari syujetining o‘ziga xosliklari ko‘proq retrospektiv asosda qurishda namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, yozuvchi voqelik bolalar fikrlash tarzi, dunyoqarashiga mos bo‘lishi uchun voqelikni sodda, bolalarbop ifodalar orqali bayon etish yo‘lidan boradi, va davr manzarasi hamda kishilar qiyofalari talqinida asarlar qahramonlari o‘z davrining farzandlari sifatida milliy qiyofalarini namoyon etadilar.

Bobning **“Oqim” qissasida tarixiy voqelik tasvirining o‘ziga xosliklari** faslida “Oqim” qissasi Nosir Fozilovning ijodidagi o‘ziga xos asar bo‘lib, asarda xalqimizning og‘ir, ayanhli, adiblar ta‘biri bilan aytganda, “tariximizning eng kirlik, qora kunlari” holatdagi ahvoli tilga olingan.

Tarixiy mavzularda asar yaratish naqadar olijanob vazifa bo‘lsa, shu qadar mas‘uliyatli hamdir. Tarixni baholash vaqtning zimmasida, albatta. “Oqim” qissasida N.Fozilov tariximizning ayrim sahifalarini birma-bir varaqlab, unga murojaat etdi. Shu sababli ham qissa kitobxonlarda alohida taassurot qoldiradi.

Yozuvchi qissalari mavzusiga ko‘ra o‘tmish va zamonaviy voqealarni ifoda etishi bilan ajralib turadi. O‘tmish deganimiz, o‘tgan asrning birinchi yarmi. Bunda milliy tariximizdagi dolg‘ali yillarda xalq hayoti, bolalar va o‘smirlar olami o‘quvchi ko‘z o‘ngida yorqin gavdalanadi. N.Fozilovning o‘ziga xos badiiy mahorati shundaki, u nafaqat o‘zbek, balki qardosh xalqlar turmush tarzi, tilini ham yaxshi biladi va ularni tabiiy aks ettira oladi. Binobarin “Oqim” qissasi va ayrim hikoyalarni e‘tiborga olmasak, yozuvchining aksariyat qissalari urush va urushdan keyingi davr xalq hayotiga bag‘ishlangan. Jumladan, “Oqim”da kolxozlashtirish voqealari yoritilgan. (Ma‘lumki, 1929—33-yillarda O‘rta Osiyoda er-suv islohoti o‘tkazilishi jarayonida xususiy mulkchilikka chek qo‘yilib, kolxozlashtirish siyosati olib borilgan, unga ko‘ra barcha er-mulk davlatniki deb baholangan-M.SH.)

“Oqim” sof tarixiy qissa emas, balki unda qalamga olingan voqealarda davr tarixi haqida fikr yurtuladi. Chunki adibning hikoya va qissalarini o‘qiganingizda bosh qahramon prototip sifatida yoritiladi yoki aynan adib o‘zi yashagan sharoit qalamga olinadi. Shu singari, “Oqim” qissasida ham adib eshitib, mulohaza qilgan tarixiy voqealar tasvirlanib, “kolxozlashtirish” va feodallikka chek qo‘yish voqealari tarix sahnasiga chiqadi.

Nosir Fozilov qissalarini tahlil qilish jarayonida bir uslub ayon bo‘ldiki, bu qissadan yangi qissa yaratish jarayonidir. Bu haqida biz tadqiqotimizning keying o‘rinlarida ham to‘xtalib o‘tamiz. Hozir so‘z yuritayotganimiz “Oqim” qissaning o‘ninchi bobidan boshlab yoritilgan voqealarni mohirona tarzida yangi “Adashganlar” nomli kino-qissa sifatida beradi. Ikkala asarda ham voqealar rivoji

bir xil, ammo ayrim qahramonlar ismi o'zgartirilgan. "Adashganlar" kino-qissasi sahna uchun mo'ljallanib hikoyachi tilidan sahna holati yoritilgan.

Ushbu bobning *"Qissalarda Ikkinchi jahon urushi davri voqealari tasvirining qiyosiy tahlili"* nomli uchinchi faslida "Qahr va mehr" hamda "Qush qanoti bilan" shuningdek "Mening husnim" hikoyalarida tilga olingan voqealar ketma-ketligining bir xil strukturada ekanligi haqida so'z boradi.

Shu jihatdan aynan urush davrining qiyinchiliklarini boshdan kechirgan, bolaligining eng shirin damlarini urush oqibati ila dalada kattalar bilan birga o'tkazgan N.Fozilovning "Mening husnim" hikoyasi, "Qahr va mehr" hamda "Qush qanoti bilan" qissalari alohida e'tirofqa loyiqdir. N.Fozilov mahoratining yana bir qirrasini bir xil manzara, bir xil tasvir, bir xil obrazlar bilan bir necha hikoya va qissalarni yarata olishida namoyon bo'ladi. Kitobxon o'qishni boshlaganda bu asarni qachondir o'qiganligini aniq eslaydi, qahramonni taniydi, shu asarni yoki boshqami deb bir necha bor kitob muqovasiga ham qaraydi. Ammo hikoya yoki qissaning oxiriga etganda, yakunga kelib umuman boshqa asar ekanligini tushunib etadi.

"Mening husnim" hikoyasi, "Qush qanoti bilan" hamda "Qahr va mehr" qissalaridagi "Eshak karvon" syujetini olaylik. Voqea tasviri, obrazlar so'zi, qahramonlarning nomlanishi (ba'zilarini boshqa nom bilan atagan bo'lsa-da) ham hatto bir xil badiiy chiziqda ketadi:

- Ko'rdingmi?
- Nimani? - dedim hayron bo'lib.
- Qishloqda nima ko'p, eshak ko'p - dedi u kulib.
- Nima bo'пти?
- Yig'ib, anavinday qilib bug'doy tashisak-chi? - dedi yo'lovchiga ishora qilib. - Zagatovka!....

Men uni maqsadini darrov fahmladim"¹⁷.

Ushbu parcha "Mening husnim" hikoyasi va "Qahr va mehr" qissasidan olingan bo'lib, hikoya va qissada hech bir so'z o'zgartirilmay bayon etilmoqda va bu syujet orqali adib voqealar rivojini boshlab bermoqda.

Shu o'rinda adib ko'rgan-kechirganlarini yozganligiga guvoh bo'lish bilan birga, hikoyada tilga olingan qahramonlarning nomi qissada o'zgaradi, bu holat N.Fozilov urush vaqtida birga Vatan uchun xizmat qilgan tengqurlarining barchasini o'z asarlari orqali kitobxon bilan tanishtirib bormoqchi bo'lganini tasdiqlaydi. Fikrimiz dalili uchun ushbu asarlar qahramonlari nomlarini yonma-yon qo'yib, qiyoslashga harakat qilamiz:

| "Mening husnim" hikoyasi qahramonlari: | "Qush qanoti bilan" qissasi qahramonlari: | "Qahr va mehr" qissasi qahramonlari: |
|---|---|--|
| Haydar, Roziq, A'zam, G'anisher, | Sarvar - qissa shu qahramon tilidan hikoya qilingan. 13 yoshda, | Ergashvoy - qissaning asosiy qahramoni, 13 yoshda, qissa shu bola tilidan hikoya qilingan. |

¹⁷ Фозилов Н. Болалигим – пошполигим. - Тошкент: Юлдузча, 1989. - Б. 17; Фозилов Н. Кичкина деманг бизни. – Тошкент: Ёш гвардия, 1977. – Б. 15.

| | | |
|------------------------------|---|--|
